



Usmonov J.K

*O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar
institute Umumiy taktika kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya: *Bilamizki, Jamiyatning kelajagi yoshlarning qōlida, poydevori esa bu oila. Har bir yosh avlod barkamol bilimli va vatanparvar bōlib yetishi- ma'naviy, iqtisodiy siyosiy yuksalishining asosi hisoblanadi. Yoshlarni har tomonlama qōllab-quvvatlash va tarbiyalashda oila hamda jamiyatni ōrni beqiyos. Maqola oila va jamiyatda yoshlar taraqqiyotining ōrniga bag'ishlanadi.*

Kalit sōzlar: *Oila, jamiyat, davlat, vatanparvar, yoshlar, barkamol, tarbiya, axloq, prezident, siyosiy, avlod, xalq, ta'lim, inson, taraqqiyot, kelajak, rivojlanish, qadriyat, ma'naviy, salohiyat, mustaqil, dunyoqarash, poydevor, millat ravnaq, harakat.*

Oilabi inson tarbiyasining birinchi ba eng muhim maskani. Bolaning dunyoqarashi odob-axloqi, qadriyatlarga bōlgan munosabati avvalo oilada shakllanadi. Darhaqiqat ōzbek oilasi zimmasiga yosh avlodni har tomonla- ma mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifa yukla-tilgan. Inson shaxsini shakllantirish oila muhitidan boshlanadi, xususan oila da fe'l-atvor, iroda, odatlar xulq tevrak-atrofga munosabat, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar vujudga keladi. Eng yuksak insoniy xis-tuyg'ular, ezgu-niyatlari betakror ma'naviyat, iqtidor, salohiyat, aql-zakovat ham oila bağrida tarkib topadi. [1-a.5-bet]

Bizga ma'lumki, har bir bola tarbiya asosini eng avvalo oiladan, keyin ijtimoiy maskan ya'ni jamiyatdan oladi.

Lekin har bir oila yetarlicha tarbiya berish salohiyatiga egami? Bundan tashqari bolaning tarbiyachilari - ota-ona har doim uning yonida bōla oladimi? Ota oila boqishi ishlashi kerak. Hozirgi davrda ayollar ham faqatgina oilaviy mas'uliyat bilan cheklanib qolmay, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida ham faoliyat yuritib, jamiyat taraqqiyotida muhim ōrin egallamoqdalar, gohida esa turmush tashvishini mutlaqo ōz yelkalariga olishlariga tōğri keladi. Bunday hollarda bolaga yetarlicha vaqt ajratishning imkoni bōlmaydi. Nola kōp baqtini enagada bōğchada keyin maktabda ōtkazishiga tōğri keladi. Bu bolaning axloqiy taffakuri shakllanish vaqtida unga enaganing, bōğchaning, ta'lim muassasalaridan foydalknishlari lozim. [2-a.]

Jamiyat inson taraqqiyotini bosh maydoni, ijtimoiy hayotni asosi va shaxs kamolotining manbaidir. Yoshlar jamiyatda eng faol, yangilik yaratuvchi qat-lam sifatida mamlakat kelajagini belgilovchi kuch hisoblanadi. Shu bois jamiyat yoshlar rivojlanishi uchun mustahkam ma'naviy muhit yaratishi za-rur. UNICEF ning "your of uzbekistan: challenge and prospects" (2020) hisobotida qayd etilishicha "jamiyatdagi yoshlarning faolligi ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning asosiy omillidir". [4-a] Har bir jamiyatning kuch qudrati, har bir xalqning ertangi kuni uning yoshlariga bōğliq. Jamiyat yoshlar rivojining eng muhim omillidir. Ular uchun yaratilgan sharoit, imkoniyat va



qadriyatlar tizimi millat kelajagini belgilaydi. Har bir jamiyat yoshlar orqali yangilanadi, kuch topadi va o'z istiqbolini mustahkam-laydi. Shuning uchun ham yoshlar taraqqiyoti masalasi - bu faqat oila yoki davlat siyosatining emas, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir. Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning barkamol bo'lib, voyaga yetishi, o'z o'rnini topib oila va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi uchun leng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan e'tibori ularning taqdiri va kelajagiga bo'lgan jonkuyarligi barchamizga ibrat bo'layotir.

Yoshlarning ma'naviy barkamoligi vatanparvarligi va mustaqil fikrlashi eng avvalo oila bag'rida shakllanadi. Prezidentni tashabbuslari bilan yoshlarga oid davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanadi. Har bir yosh o'z oilasining gururi jamiyatning tayanchi davlatning istiqbolidir.

Ta'kidlash joizki, yurtboshimiz yoshlarga oid davlat siyosatiga alohida e'ribor bermoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni yoshlar bilan bolib o'tgan tarixiy uchrashuvi mamlakatda yoshlar siyosati samaradorligini oshirish bilan bog'liq yangi davrni boshlab berdi. Eng muhim jihat sifatida, davlatimiz rah-bari tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlarni buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan ba safarbar etadigan ommaviy harakat-o'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlari-ni himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi" far-mon qabul qilindi va 30-iyun mamlakatda "Yoshlar kuni" deb belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi. [3-a.75-bet] Prezidentimiz bugungi kun yoshlarini yanada diqqatli va mas'uliyatli bolish-ga chorlaydi. Prezidentimiz yana bir fikrlarida "yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bosh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", [3-a.68-bet] deb aytib o'tganlar.

Buyuk ma'rifatparvar Abdullar Avloniy o'zining asarlarida ta'kidlaganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat masalasidir". [5-a.10-bet]. Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi, jamiyat rivo-jining eng muhim omillaridan biridir.

Xulosa.Oila va jamiyat bir-biridan ajralmas, inson kamolotining poydevori tashkil etuvchi ikki asosiy ijtimoiy maskandir. Ayniqsa yoshavlodning shakllanishi, ularning ma'naviy intellektual va axloqiy rivojida oilaning o'rne beqiyosdir. Zero har qanday jamiyatning ertangi kuni, uning taraqqiyoti va barqarorligi aynan bugungi yoshlarning dunyoqarashi, bilim saviyasi hamda hapyga bo'lgan mas'uliyatli munosabatiga bog'liq. Shu boisdan ham oila va jamiyat o'zaro hamkorlikda yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish jarayonida muhim vazifani bajaradi. Bugungi globallashuv davrda yoshlarni tafakkurini yuksaltirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega etib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor



yönalishiga aylangan. Öz navbatida oila muhitida shakllangan mehr-oqibat, hurmat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni jamiyatda öz örnini topishga mustaqil fikrlaydigan, hayotga faol munosabatda boladigan inson sifatida shakllanishiga asos boladi.

Shunday ekan, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari özaro ham-jihatligi yoshlarga bōlgan e'tibor va ğamxōrlik- mamlakat taraqqiyoti, millat kelajagi va Vatan ravnaqi garovidir. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol ijodkor va bunyodkor kuchi bōlib, ularning tōğri yōnaltirilgan tarbiyasi, bilim va malaka orttirishdagi mu affaqiyati butun xalqning farovon hayotini ta'minlovchi asosiy omildir.

ADABIYOTLAR RÖYXATI:

1. Oila axloqi va odobi: oquv qollanma, L.Oripov, X.Uzoqov, E.Ġoziyev, Toshkent "oqituvchi" 1995.
2. Vatanparvarlik tarbiyasi va uning ijtimoiy aha-miyati (maqola) Sh. Ahrorova 2023.
3. Harakatlar strategiyasi: Yil sarhisobi, Őzbekiston Respub-likasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, Toshkent 2018.
4. UNICEF "Youth of Uzbekistan: challenge and prospects" hisobotidan 2020.
- 5."Turkiy Guliston yoxud axloq" A.Avloniy Toshkent "Yoshlar nashriyo-ti 2019.